

## PEDAGOGIK JARAYONDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi  
Namangan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish faoliyatini rivojlantirish, ta'lif tizimida boshlang'ich ta'lif o'quvchilari psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, bu borada Jenevalik psixolog Jan Piajening qarashlari va o'quvchi o'zi eshitgan narsalarni, voqelik haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna olishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'quvchi, bilish faoliyati, Jan Piaje, nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkur.

**Abstract:** In this article, the development of the primary school student's cognitive activity, the characteristics of the psychology of primary school students in the educational system, the views of the Geneva psychologist Jean Piaget, and the student's own hearing, correct information about reality. It is said that he can understand.

**Key words:** elementary school, student, cognitive activity, Jean Piaget, speech, attention, memory, imagination and thinking.

**Аннотация:** В данной статье развитие познавательной деятельности младших школьников, особенности психологии младших школьников в системе образования, взгляды женевского психолога Жана Пиаже, собственный слух учащегося, правильная информация о действительности. Говорят, что он может понять.

**Ключевые слова:** начальная школа, ученик, познавательная деятельность, Жан Пиаже, речь, внимание, память, воображение и мышление.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim masalalaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk o'z Vatanining tarixi buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish faoliyatini rivojlantirish, ularning maylehtiyojli, hissiy-ixtiyoriy, kognitiv sohalariga muntazam tarzda ta'sir o'tkazish orqali amalga oshadi. O'quvchilarni bilishga doir qiziqishlarini rivojlantirishdan ko'zda

tutilgan asosiy maqsad ularda bilim olishga nisbatan ehtiyojni shakllantirish, qiziqishni uyg‘otish, erkinlik tarzida o‘z fikrlarini bayon etish, hamda fikriy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va shu asosda yetuk shaxs qilib tarbiyalashdan iborat.

Ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari asosan, kichik maktab davrini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu davr odatda bolalikning maktab davri deb ham yuritiladi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog‘cha yoshida to‘plagan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham axloqiy, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg‘aya boshlaydi. Jenevalik psixolog Jan Piajening ma‘lumotiga ko‘ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burulishlar ro‘y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo‘lib, ma‘lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko‘proq o‘zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo‘lib boradi. Shuning uchun ham ular ota-onalari o‘ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o‘qituvchisi o‘rgatganday tezda yechadigan bo‘lib qoladi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi tashqi real olamni, u qanday bor bo‘lsa shunday anglay boshlaydi. Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligiga, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkuryning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Bola o‘quv faoliyatida o‘qituvchi rahbarligida inson ongingin turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an‘analar asosida harakat qilishni o‘rganadi. O‘quv faoliyatida bola o‘z irodasini o‘quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O‘quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o‘z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o‘tadi. U hayotining tubdan o‘zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o‘quv faoliyati talablariga bo‘ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a‘zolarining bola o‘quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqeい o‘zgarganligini to‘la his etishiga, o‘ziga nisbatan munosabatining o‘zgarishiga asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ko‘pincha yaqqol obrazli xotiraga suyangan holda kognitiv faoliyatni tashkil etsa ham biron bir narsani eslashda xotiraning boshqa turlarini sira istisno qilmaydi, aksincha, ta’lim shaxsdan so‘z-mantiq xotirasini taqazo qiladi, ijodiy produktiv yo‘l bilan bilimlarni egallashni talab qiladi. So‘z-mantiq xotirasining mavjudligi matnnning ma‘nosiga tushunib esda olib qolish

samaradorligini oshirishga keng imkoniyat yaratadi. Tajribalardan shu narsa malumki, bola ma‘nosiz so‘zlardan ko‘ra ko‘proq ma‘nodor ilmiy tushunchalarni yaratish, tuzish va mustahkamroq esda olib qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi kattalar bilan muloqotga kirishish, o‘zgalar fikrini o‘qib olish va uni maqsadga muvofiq to‘g‘ri idrok etish darajasiga to‘la javob bera oladi. Bola nutqining tuzilishi milliy til grammatikasi qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, rang-barang tushunchalarga boy, miqdor va ko‘lam jihatdan har qanday kimsa bilan fikr almashish, muloqotga kirishish uchun mutlaqo yetarlidir. O‘quvchi o‘zi eshitgan narsalarni, voqelik haqidagi ma‘lumotlarni to‘g‘ri tushuna oladi, o‘zida mavjud bo‘lgan axborotlarni, taassurotlarni muayyan tartib bilan bayon qila oladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o‘rinli foydalanadi, narsalarni tasdiqlaydi, yaqqollashtiradi, guruhlarga ajratadi, hukm chiqaradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan o‘quv materialiga va o‘z o‘quv faoliyati jarayoniga shaxsiy va semantik munosabatini tahlil qilish va baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, ular quyidagilardir:

- umuman mavzuga bevosita qiziqish;
- o‘rganilayotgan fanning ijtimoiy ahamiyatiga o‘quvchining bahosi;
- kognitiv faoliyat tajribasidan foydalanish va ijobiy o‘zgartirish zarurati: o‘quv ishlari usullari, to‘plangan bilimlar;
- maktab o‘quvchilarini tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan (intellektual, axborot, tadqiqot va boshqalar) o‘quv ishining usullarini shakllantirish, unda o‘quv jarayonida o‘zlashtirilgan material bilan ishlash usullari va o‘quvchining o‘z tajribasini to‘plash natijalari taqdim etiladi;

Maktab o‘quvchilarining meta-bilimga ega bo‘lish mezoni quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi:

- meta-bilimni o‘zlashtirish zarurati (bilim haqidagi bilim);
- meta-bilimning mavjudligi - o‘quv materialini o‘zlashtirish texnikasi va vositalari haqidagi bilimlar (aqliy faoliyat texnikasining mohiyati haqida bilim);
- har qanday turdagи matnlarning mazmuni va tuzilishini, o‘quv topshiriqlarini tahlil qilish qobiliyati;
- ta’riflar, muammolar va teoremalarda asosiy narsani ajratib ko‘rsatish qobiliyati.
- kognitiv ob’ektlarni taqqoslash, tasniflash qobiliyati.

Keyingi ko‘rsatkich o‘quvchining ilmiy bilim mantig`ini o‘zlashtirish mezoni hisoblanadi. Ushbu mezon doirasida talabalarning fan bo‘yicha bilim sifati hisobga olinadi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, “ta’lim sifati” ni quyidagicha belgilash mumkin. O‘qitish sifati - bu diagnostik maqsadlarga erishish mezoni sifatida maqsadlar va o‘quv natijalarining nisbati bo‘lib, u o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri natijasini tavsiflovchi ta’lim ko‘rsatkichlarining yaxlit to‘plami

bilan tavsiflanadi. ikkinchisi tomonidan taqdim etilgan o‘quv materiali. Bugungi kunda maktab ichidagi boshqaruvdagi nazorat o‘z o‘rnini diagnostikaga bo‘shatib bormoqda. An'anaviy nazorat usullarini qayta ko‘rib chiqishga nima sabab bo‘ldi? Bu ta’limtarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning kuchayishi, o‘quvchiga faol, ongli, teng huquqli ishtirokchi sifatida munosabatda bo‘lish, bolalarning imkoniyatlari va qobiliyatiga jiddiy e’tibor qaratish bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonlarida o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari mayjud bo‘lib, ular har bir bolada o‘zgacha nomoyon bo‘ladi. Psixologiyada shaxsiyatning xususiyatlari, o‘zlarini muntazam ravishda namoyon etadigan asosiy xususiyatlarning barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, har bir kishi tasodifiy kerakli ma'lumotlarni unutishi mumkin, ammo umuman olganda hammasi unutilmaydi. Yagona holatlar belgilar xususiyatining mavjudligini ko‘rsatmaydi. Qarama-qarshilikka uchragan shaxslarning xarakteristikalari odat va bezovtalik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin, lekin bu boshqalarga g‘azablanishga qodir bo‘lgan har bir kishi ziddiyatli shaxs bo‘lishini anglatmaydi. Shuni aytib o‘tish joizki, inson hayot tajribasini yig‘ib oladigan barcha fazilatlar oladi. Doimiy ravishda emas, balki umr bo‘yi o‘zgarishi mumkin. Qobiliyatlar, qiziqishlar va xarakterlar - bularning barchasi hayot tarzida o‘zgarishi mumkin. Shaxs ekan, rivojlanadi va o‘zgaradi. Shaxsiyatning hech qaysi belgisi tug‘ma bo‘lishi mumkin emas, deb ishoniladi - ularning barchasi hayot davomida qo‘lga kiritilgan. Tug‘ilganda, insonga his-tuyg‘ular organlari, asab tizimi va miya ishlarini o‘z ichiga olgan fiziologik xususiyatlar beriladi va ularning xususiyatlari xarakterning rivojlanishi hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oila a‘zolarining bola o‘quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqeい o‘zgarganligini to‘la his etishiga, o‘ziga nisbatan munosabatining o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash borasida yaxshi o‘qish, o‘ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug‘ullanishga o‘rgatishlari lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. N. Ismoilova, D. Abdullayeva Ijtimoiy psixologiya.- T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2013
2. Z. Nishanova, D. Qarshiyeva, N. Atabayeva, Z. Qurbonova Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.- T.: TDPU 2015
3. V. Karimova Psixologiya.- Toshkent.: Abdulla Qodiriy 2002.
4. Z. Isaqov O‘zbekistonda sog‘lom avlodni shakllantirishning ijtimoiy, pedagogik – psixologik asoslari.- Toshkent.: TDPU 2014.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. <https://hozir.org/>